



O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi

TENDER HUJJATLARI

tender savdolari bo‘yicha

**O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri,
Mustaqillik ko‘chasi manzilida joylashgan
68*105 m2 o‘lchamli futbol maydonini o‘rnatish
uchun montaj va o‘rnatish ishlarini amalga
oshirishga shartnoma tuzish huquqi uchun**

ISHTIROKCHI YO'RIQNOMASI

TENDER SAVDOLARI

Mazkur tender hujjatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining "Xarid komissiyasi to'g'risida"gi Nizomi asosida ishlab chiqilgan.

1. TENDER PREDMETI VA CHEKLANGAN QIYMATI

1.1. **Tender predmeti:** O'zbekiston futbol Assotsiatsiyasi ko'magida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri, Mustaqillik ko'chasi manzilida joylashgan 105 x 68 m² o'lchamdagi futbol maydonini o'rnatish uchun montaj va o'rnatish ishlarini amalga oshirish.

1.2. Tenderning cheklangan qiymati - 250 000 (ikki yuz ellik ming) AQSH dollari yoki 3 103 500 000 (uch milliard bir yuz uch million besh yuz ming) so'm QQS bilan. Tender taklifida ko'rsatilgan narxlar cheklangan qiymatdan **oshmasligi kerak**.

1.3. Tender predmetiga texnik topshiriq tender hujjatlarining **texnik qismida** keltirilgan.

1.4. Ushbu tender bo'yicha montaj va o'rnatish ishlarini amalga oshirishda foydalaniladigan sun'iy chim, shuningdek, granular narxi tender narxiga kiritilgan.

1.5. Tender takliflarini qabul qilish muddati 2025-yil "05" sentyabrgacha.

2. TENDER SAVDOLARI TASHKILOTCHILARI

2.1. **O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi** tenderning buyurtmachisi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb ataladi) hisoblanadi.

"Buyurtmachi"ning manzili: 100011, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, I. Karimov ko'chasi, 98A-uy. Pochta manzili: uzb@the-afc.com

2.2. Tenderlar "Buyurtmachi" tomonidan tashkil etilgan tender komissiyasi tomonidan o'tkaziladi, u tenderni o'tkazish uchun vaqtinchalik organ hisoblanadi.

2.3. Shartnoma egasi: O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi.

3. TENDER SAVDOLARI ISHTIROKCHILARI

3.1. Tenderda mahalliy ishlab chiqaruvchilar (yetkazib beruvchilar), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ham, tender hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq bo'lgan xorijiy ishlab chiqaruvchilar (yetkazib beruvchilar) ham qatnashishlari mumkin.

3.2. Tender savdolarida qatnashish uchun tender qatnashchilari ushbu tender hujjatlari talablariga muvofiq tender taklifini taqdim etishlari kerak.

Tender taklifi shakli 1-ilovada keltirilgan.

4. TENDER SAVDOLARIDA ISHTIROK ETISH UCHUN ISHTIROKCHILARNI MALAKAVIY TANLASH

4.1. Tender savdolari o'tkazilayotganda tender komissiyasi tomonidan qatnashchilarning malakaviy tanlovi amalga oshiriladi. Tenderda keyingi ishtirok etishga faqat malakaviy tanlovdan o'tgan ishtirokchilar qo'yiladi.

4.2. Ishtirokchilarni malakaviy tanlab olishda quyidagi tashkilotlarning **tenderda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi**:

- malaka tanlovi uchun zarur hujjatlar to'plamini belgilangan muddatda taqdim etmaganlar;
- tender hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmagan malaka hujjatlarini taqdim etganlar;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan;
- "Buyurtmachi" bilan sud yoki arbitraj muhokamasi holatida bo'lgan;
- Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilgan;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzi bo'lganlar;
- tender e'lon qilingunga qadar 5 yildan kam muddatda ta'sis etilganlari;
- futbol sohasida shunga o'xshash xalqaro loyihalarni amalga oshirish tajribasiga ega bo'lmagan kompaniyalar;

- imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va/yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni oshkor etish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlarda yoki hududlarda ro'yxatdan o'tkazilgan (offshor zonalar), shuningdek offshor zonalarda joylashgan banklarda hisobvaraqlariga ega bo'lgan (mamlakatlar ro'yxati ilova qilinadi);

4.3. Malakaviy baholash mezonlari 2-ilovada keltirilgan.

4.4. Chet tilida taqdim etilgan hujjatlarga ishtirokchining muhri bilan tasdiqlangan o'zbek tilidagi tarjimasini ilova qilinishi kerak. Matnlar turlicha o'qilgan taqdirda, o'zbek tilida taqdim etilgan hujjat ustuvor hisoblanadi.

4.5. Yuqorida ko'rsatilgan taqdim etilishi majburiy bo'lgan hujjatlardan tashqari, ishtirokchi o'zining moliyaviy ahvoli, obro'si, ish tajribasi va boshqalarni aks ettiruvchi axborot xususiyatiga ega bo'lgan qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishga haqli.

Tender ishtirokchisining ta'sis hujjatlari hujjatlar ro'yxati mazmuni bilan tikilgan va raqamlangan bo'lishi kerak.

4.6. Tender axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va/yoki Buyurtmachining www.ufa.uz manzilida joylashgan rasmiy veb-saytidan foydalangan holda elektron shaklda o'tkazilgan taqdirda, yuqorida sanab o'tilgan hujjatlar ushbu Nizomning 2-bo'limida ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlari bo'yicha elektron shaklda yoki ekspres pochta orqali yoki ishtirokchining vakolatli vakili orqali qo'lma-qo'l tarzda taqdim etiladi. Tender g'olibi ilgari elektron pochta orqali yuborilgan hujjatlarni buyurtmachi va tender g'olibi o'rtasida shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 ish kuni ichida asl nusxada taqdim etish majburiyatini oladi.

5. TENDER TAKLIFI VA UNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

5.1. Ishtirokchining tender taklifi tender komissiyasining ishchi organiga ushbu Nizomning 2-bo'limida ko'rsatilgan elektron aloqa kanallari orqali yoki tezkor pochta orqali yoki ishtirokchining vakolatli vakili orqali qo'ldan qo'lga o'tkaziladi. Tender taklifini taqdim etish sanasi va vaqti ishchi organ tomonidan tender takliflarini ro'yxatga olish jurnalida qayd etiladi hamda ishtirokchining vakolatli vakili (u mavjud bo'lgan taqdirda) imzosi bilan tasdiqlanadi.

5.2. Tender taklifi o'zbek tilida beriladi. Ishtirokchilar tender taklifini boshqa tilda, uning o'zbek tilidagi tarjimasini albatta taqdim etgan holda berishga haqli. Tarjima ishtirokchining muhri bilan tasdiqlanishi kerak. Matnlar turlicha o'qilgan taqdirda, o'zbek tilida taqdim etilgan hujjat ustuvor hisoblanadi. Tender hujjatlari bilan bog'liq barcha yozishmalar ishtirokchining tilida, o'zbek tilidagi tarjimasini ilova qilingan holda rasmiylashtirilishi mumkin.

Tender taklifida SI metrik o'lchash tizimidagi kattaliklar ko'rsatilishi kerak. Agar boshqa tizim qo'llanilsa, tender ishtirokchisi SI o'lchash tizimiga mos keladigan uning ekvivalentini ko'rsatishi kerak.

5.3. Tender taklifi ikki qismdan iborat bo'ladi:

- texnik qism "Buyurtmachi"ning texnik talablariga muvofiq bo'lishi va taklif etilayotgan tovarning batafsil tavsifini o'z ichiga olishi kerak;

- narx qismi tender savdolari shartlariga muvofiq bo'lishi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak: tovarning nomi, tovarning narxi, yakuniy summa, shuningdek taklifning amal qilish muddati va h.k.

5.4. Tender ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

5.5. Ishchi organ faqat ushbu yo'riqnoma talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan tender takliflarining yaxlitligi va saqlanishi uchun javob beradi.

5.6. Tender takliflari O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 98A-uy manzilida va ushbu Nizomning 2-bo'limida ko'rsatilgan elektron aloqa kanallari orqali taqdim etish muddati tugagunga qadar qabul qilinadi.

6. TENDER TAKLIFLARINI TOPSHIRISH MUDDATINI UZAYTIRISH

6.1. Tender komissiyasi tenderni yopish sanasini ko'chirish (tender takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish) to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin, bu qaror tenderning barcha qatnashchilariga tatbiq etiladi. Tenderni uzaytirish muddati buyurtmachining veb-saytida e'lon joylashtirilgan sanadan boshlab 15 ish kunidan oshmasligi kerak.

6.2. Muddatni uzaytirish to'g'risidagi qaror faqat tender komissiyasi majlisida qabul qilinadi.

6.3. Tender takliflarini taqdim etish muddatlarini uzaytirish to'g'risidagi qaror buyurtmachining veb-saytida joylashtiriladi.

7. TENDER TAKLIFLARI BILAN KONVERTLAR/ELEKTRON BUYURTMALARNI OCHISH TARTIBI, ULARNI BAHOLASH TARTIBI VA MEZONLARI;

7.1. Tender takliflari solingan konvertlar/elektron buyurtmanomalarni ochish bevosita tender komissiyasi majlislarida amalga oshiriladi.

7.2. Tender takliflarini baholash va tender g'olibini aniqlash tender hujjatlarida (2-ilova) bayon etilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Taqdim etilgan tender takliflarining qo'shimcha texnik, tashkiliy va tijorat afzalliklari, shuningdek tender ishtirokchisining obro'si ham e'tiborga olinishi mumkin.

7.3. Tender takliflarini ko'rib chiqish muddati tender komissiyasi tomonidan belgilanadi, biroq tender takliflarini berish muddati tugagan paytdan boshlab 10 kundan oshmasligi kerak. Tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash natijalari bo'yicha g'olib va zaxiradagi ishtirokchi aniqlanadi.

7.4. Agar tender ishtirokchilari takliflarni turli valyutalarda taqdim etsalar, tahlil chog'ida takliflar summasi tender taklifining narx qismi qayd etilgan konvertlar ochilgan kundagi O'zR MB kursi bo'yicha yagona valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Tender takliflarini baholash jarayonida tender komissiyasining ishchi organi ishtirokchilarga tender taklifida ko'rsatilgan u yoki bu axborotni tasdiqlash yoki tushuntirish bo'yicha yozma so'rovlar yuborishga haqli. Bunday so'rovlarni olishda ishtirokchilar ishchi organga yozma ravishda javob berishlari va so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak. Bunday yozishmalar davomida tender taklifiga biron-bir o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

7.5. Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lgan taqdirda tender komissiyasi tender ishtirokchisini xabardor qilgan holda tender taklifini rad etishga yoxud ularni kelgusida ko'rib chiqishning boshqa shartlarini belgilashga haqlidir.

7.6. Tender savdolari g'olibi to'g'risidagi qaror ishchi organ tomonidan buyurtmachining saytida tegishli e'lonni joylashtirish yo'li bilan tenderning har bir qatnashchisi e'tiboriga yetkaziladi.

7.7. Tender natijalari bo'yicha tender g'olibi bilan tender hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlarda shartnoma tuziladi. G'olib Buyurtmachi bilan shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda, g'olib bo'lish huquqi zaxiradagi ishtirokchiga o'tadi.

8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA MAXFIYLIKKA RIOYA QILISH

8.1. Tushayotgan tender takliflarining hisobga olinishi, ularning saqlanishi va maxfiyligi uchun "ishchi organ" tarkibiga kiruvchi shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javob beradilar.

8.2. Tender komissiyasi va uning raisi, shuningdek tender takliflarini o'rganish uchun tuzilgan ishchi guruh a'zolari:

- axborotni oshkor qilish, ishtirokchilar, komissiyaning qolgan a'zolari va jalb etilgan ekspertlar bilan til birlashtirishga yo'l qo'yish,

- g'olibni aniqlash tartib-taomillarining xaridlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi,

- qabul qilinayotgan qarorlarning asosiligi va xolisligi, shuningdek boshqa g'ayriqonuniy xatti-harakatlar uchun.

8.3. Tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgardir. G'olib deb topilgan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda buyurtmachi bilan shartnoma tuzishi shart.

8.4. Miqdor, sifat va texnik parametrlar bo'yicha kontraktни bajarmagan tender g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki kontraktда nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Tender savdolariga ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan chetdan keltirilgan mahsulotlar taklif etilgan taqdirda tender komissiyasi tender savdolari qatnashchisidan ushbu mahsulotlarga uchinchi shaxslarning fikr-mulohazalarini taqdim etishni so'rashga haqlidir.

9.2. Tender qatnashchisi buyurtmachiga tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa belgilangan shaklda tender hujjatlari qoidalariga tushuntirishlar berish to'g'risida so'rov yuborishga haqlidir. Buyurtmachi ko'rsatib o'tilgan so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida, agar

ko'rsatib o'tilgan so'rov buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, tender hujjatlari qoidalariga yuzasidan belgilangan shaklda tushuntirishlar yuborishi shart. Tender hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

9.3. Ishtirokchilarning tender takliflarini ko'rib chiqish muddati tugagandan keyin tushgan tender takliflariga yo'l qo'yilmaydi. Tender takliflarini berish muddati davrida tender ishtirokchisi ilgari berilgan tender taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli. Tender taklifiga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tender ishtirokchisi tender takliflarini berish muddati tugaguniga qadar "almashtirish" degan yozuv bilan o'zgartirilgan tender taklifi ko'rsatilgan buyurtmanomani taqdim etadi.

9.4. Tender savdolari komissiya tomonidan quyidagi hollarda o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:

- hujjatlarni qabul qilish muddati tugagunga qadar birorta ham tender taklifi kelib tushmagan yoki faqat bitta ishtirokchining taklifi kelib tushgan bo'lsa;

- tender komissiyasi barcha takliflarni rad etdi yoki faqat bitta taklif tender hujjatlari talablariga javob beradi.

9.5. Agar tushgan takliflarning birortasi ham tender hujjatlari shartlariga muvofiq bo'lmasa, tender savdolari bo'lib o'tgan, biroq salbiy natijaga ega deb hisoblanadi. Bunday holda komissiya qaroriga ko'ra tender takroran o'tkazilishi mumkin.

9.6. Buyurtmachi tenderda qatnashish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin tender hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir. Tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tenderda takliflar berishning tugash muddati tender hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida o'n ish kuniga uzaytirilishi kerak. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tender o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi. Ishchi organ tender hujjatlariga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritilganligi to'g'risida tender hujjatlarini olgan barcha ishtirokchilarni o'zgartirishlar kiritilgan kundan e'tiboran ikki kun ichida, biroq tender takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin pochta, elektron pochta yoki faks orqali xabardor qiladi."

9.7. Tender komissiyasi g'olib bo'lgan taklif akseptlangunga qadar istalgan vaqtda tenderni bekor qilish huquqiga ega.

Buyurtmachi xaridlarning bekor qilinganligi uchun javobgar bo'lmaydi, xaridlarning bekor qilinishi buyurtmachining aybli harakatlari yoki harakatsizligi oqibati bo'lgan hollar bundan mustasno.

RO'YXAT
imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga
oshirishda axborotni oshkor etish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar va
hududlar (offshor zonalar)

№	Davlatning qisqacha nomi	Davlatning to'liq nomi	Raqamli kod
1.	Amerika Samoasi	Amerika (Sharqiy) Samoasi	101
2.	Angilya	Angilya (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	102
3.	Andorra	Andorra Qirolligi	103
4.	Antigua va Barbuda	Antigua va Barbuda	104
5.	Aruba	Aruba oroli (Niderlandiya Qirolligi)	105
6.	Bagam orollari hamdo'stligi	Bagam orollari hamdo'stligi	106
7.	Barbados	Barbados	107
8.	Beliz	Beliz	108
9.	Bermud orollari	Bermud orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	109
10.	Britaniya hududlari	Hind okeanidagi Britaniya hududi (Chagos oroli)	110
11.	Bruney-Dorussalom	Bruney Dorussalom davlati	111
12.	Vayoming shtati	Vayoming shtati (Amerika Qo'shma Shtatlari)	112
13.	Vanuatu	Vanuatu Respublikasi	113
14.	Virgin orollari	Virjiniya orollari (Amerika Qo'shma Shtatlari)	114
15.	Britaniya Virjiniya orollari	Britaniya Virjiniya orollari	115
16.	Gvatemala	Gvatemala Respublikasi	116
17.	Gibraltar	Gibraltar (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	117
18.	Gonkong-Syangan	Gonkong-Syangan maxsus ma'muriy hududi (Xitoy Xalq Respublikasi)	118
19.	Grenada	Grenada	119
20.	Delaver shtati	Delaver shtati (Amerika Qo'shma Shtatlari)	120
21.	Dominika	Dominika Hamdo'stligi	121
22.	Dominikan Respublikasi	Dominikan Respublikasi	122
23.	Janubiy Jorjiya va Janubiy Sandvich orollari	Janubiy Jorjiya va Janubiy Sandvich orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	123
24.	Jibuti	Jibuti Respublikasi	124
25.	Kayman	Kayman orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	125
26.	Kergelen orollari	Kergelen orollari (Fransiya Respublikasi)	126
27.	Kipr	Kipr Respublikasi	127
28.	Kiribati	Kiribati Respublikasi	128
29.	Kosta-Rika	Kosta-Rika Respublikasi	129
30.	Kuk orollari	Kuk orollari (Yangi Zelandiya)	130
31.	Labuan	Labuan federal hududi (Malay Federatsiyasi)	131
32.	Liberiya	Liberiya Respublikasi	132
33.	Livan	Livan Respublikasi	133
34.	Lixtenshteyn	Lixtenshteyn Qirolligi	134
35.	Mavrikiy	Mavrikiy Respublikasi	135
36.	Madeyra oroli	Madeyra oroli (Portugaliya Respublikasi)	136

37.	Makao-Aomin	Makao-Aomin maxsus ma'muriy tumani (Xitoy Xalq Respublikasi)	137
38.	Maldiv orollari	Maldiv Respublikasi	138
39.	Malta	Malta Respublikasi	139
40.	Marshall orollari	Marshall Orollari Respublikasi	140
41.	Monako	Monako Qirolligi	141
42.	Monserrat	Montserrat (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	142
43.	Men oroli	Men oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	143
44.	Nauru	Nauru Respublikasi	144
45.	Niderlandiya Antil orollari	Niderlandiya Antil orollari (Niderlandiya Qirolligi)	145
46.	Niue	Niue (Yangi Zelandiya)	146
47.	Gernsey Normandiya oroli	Gernsi Normandiya oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	147
48.	Normandiya Jersi oroli	Normandiya Jersi oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	148
49.	Normandiya Olderni oroli	Normandiya Olderni oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	149
50.	Normandiya Sark oroli	Normand Sark oroli (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	150
51.	Palau	Palau Respublikasi	151
52.	Panama	Panama Respublikasi	152
53.	Pitkern	Pitkern orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	153
54.	Puerto-Riko	Puerto-Riko (Amerika Qo'shma Shtatlari)	154
55.	Samoa	Samoa mustaqil davlati	155
56.	San-Marino	San-Marino Respublikasi	156
57.	Seyshel orollari	Seyshel Orollari Respublikasi	157
58.	Sen-Marten (Sint-Marten)	Sent-Marten (Sint-Marten) (Niderlandiya Qirolligi)	158
59.	Sent-Vinsent va Grenadin orollari	Sent-Vinsent va Grenadin orollari	159
60.	Sent-Kits va Nevis	Sent-Kits (Sent-Kristofer) va Nevis Federatsiyasi	160
61.	Sent-Lyusiya	Sent-Lyusiya	161
62.	Terks va Kaykos	Terks va Kaykos orollari (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi)	162
63.	Tongo	Tongo Qirolligi	163
64.	Urugvay	Sharqiy Urugvay Respublikasi	164
65.	Fiji	Fiji Respublikasi	165
66.	Filippin	Filippin Respublikasi	166
67.	Fransuz Polineziyasi	Fransuz Polineziyasi (Fransiya Respublikasi)	167
68.	Shri-Lanka	Shri-Lanka Demokratik Sotsialistik Respublikasi	168
69.	Yamayka	Yamayka	169

RO'YXAT
malaka hujjatlari

1. Tender savdolarida qatnashish uchun buyurtmanoma (1-ilovaga muvofiq shakl).
2. Ta'sis hujjati (Nizomi) yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi (elektron shaklda yoki tender ishtirokchisining xohishiga ko'ra shaxsan).
3. Kafolat xati (2-shakl) elektron shaklda yoki tender ishtirokchisining xohishiga ko'ra qo'lda taqdim etiladi.
4. Futbol sohasida bajarilgan obyektlar bo'yicha referens-varaq ilova qilingan holda ishtirokchi to'g'risida umumiy ma'lumot (elektron shaklda yoki tender ishtirokchisining xohishiga ko'ra shaxsan) (3-shakl).
5. Tashkilot (kompaniya) rahbarining tenderda ishtirok etishi imkoniyati bo'lmagan taqdirda, quyidagilar uchun vakolatli vakil nomiga ishonchnoma (elektron shaklda yoki tender ishtirokchisining xohishiga ko'ra shaxsan) taqdim etilishi zarur:
 - a) tender hujjatlarini taqdim etish;
 - b) tender buyurtmachisi va ishchi organ bilan muzokaralar o'tkazish;
 - v) tender komissiyasi majlislarida qatnashish;
 - g) tender taklifining texnik va narx qismiga taalluqli masalalarni, shuningdek boshqa masalalarni tushuntirish.

Tender ishtirokchilarining tender takliflari SHAKLI

TENDERDA ISHTIROK ETISH UCHUN ARIZA

O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri, Mustaqillik ko'chasi manzilida joylashgan 105 x 68 m2 o'lchamdagi sun'iy futbol maydonini o'rnatish uchun O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi ko'magida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida sizning tashkilotingiz tomonidan o'tkazilayotgan tender bo'yicha hujjatlarni o'rganib chiqib, www.ufa.uz internet manzilida joylashtirilgan, biz, quyida imzo chekuvchilar, tender hujjatlariga muvofiq montaj va o'rnatish ishlarini amalga oshirish bo'yicha tender savdolarida ishtirok etish niyatidamiz. Shu munosabat bilan, Kompaniyamiz quyida o'zi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi:

Ariza beruvchi haqida ma'lumot:

1. To'liq nomi: _____;
2. Yuridik manzili: _____;
3. Aloqadagi shaxs: _____ - _____
(_____);
4. STIR: _____

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi ko'magida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri, Mustaqillik ko'chasi manzilida joylashgan 105 x 68 m2 o'lchamdagi sun'iy futbol maydonini o'rnatish uchun montaj va o'rnatish ishlarini amalga oshirish bo'yicha tenderga oid xarid hujjatlar ma'lumotlarini o'rganib chiqib, www.ufa.uz internet manziliga joylashtirgan holda, biz tender g'olibi deb e'tirof etilgan taqdirda, quyidagi shartlar asosida sizning foydangizga montaj va o'rnatish ishlarini amalga oshirishimizga to'liq rozilik beramiz:

№	Ishlar nomi	Bajarish muddatlari	Foydalanilgan materiallar	Birlik narxi	Qiymat
1.					
2.					
3.					
4.					
Jami					

Ushbu taklifga ilovada ishlarni amalga oshirishda foydalaniladigan mahsulotlar va materiallarning texnik xususiyatlari va ularning tender shartlarida ko'rsatilgan parametrlarga muvofiqligi to'g'risidagi hujjatlarni ilova qilamiz. Shuningdek, Kompaniyamizning ta'sis hujjatlarini taqdim etamiz.

Tender bo'yicha montaj va o'rnatish ishlarini amalga oshirishda foydalaniladigan sun'iy chim, shuningdek, granular qiymati ushbu buyurtma qiymatiga kiritilgan.

Ushbu tijorat taklifi _____ yil "_____" _____ gacha amal qiladi.

Tezroq javob berishingizga umid qilamiz.

Hurmat bilan,

_____ (lavozimi)

_____ FISH

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№: _____

Sana: _____

Tender komissiyasi

KAFOLAT XATI

Ushbu xat bilan tasdiqlaymizki, kompaniya _____:

(kompaniyaning nomi)

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emas
- O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi bilan sud yoki hakamlilik ishlari bo'yicha nizoli holatda emas
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzi mavjud emas;
- Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda mavjud emas;

Imzolar:

Rahbarning F.I.SH. _____

Bosh buxgalter (moliya bo'limi boshlig'i) ning F.I.SH. _____

Yuristning F.I.SH. _____

Muhr joyi

Tender ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumot

1	Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq nomi	
2	Ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumot (ro'yxatdan o'tkazish sanasi, ro'yxatdan o'tkazish raqami, ro'yxatdan o'tkazuvchi organning nomi)	
3	Yuridik manzil	
4	Aloqa telefoni, faks, e-mail	
5	To'liq bank rekvizitlari	
6	Faoliyatning asosiy yo'nalishlari	

**Talab qilingan yoki shunga o'xshash ishlarni bajarish tajribasi haqida ma'lumot
futbol sohasida**

№	Nomi ishning bajarilish predmeti	Buyurtmachining nomi, uning manzili va bog'lanish ma'lumotlari	Ishni bajarish sanasi	Eslatma

(vakolatli shaxsning imzosi)

(vakolatli shaxsning F.I.SH. va lavozimi)

m.j.

Sana: «__» _____ 2025 y.

FIRMA BLANKASIDA

ISHONCHNOMA

Kompaniya (korxona, zavod va h.k.) _____, keyingi o‘rinlarda "Kompaniya" deb ataladi, Ustav (Nizom va h.k.) asosida ish ko‘ruvchi _____ nomidan ushbu ishonchnoma bilan Kompaniya vakili - fuqaro _____ ga (pasport seriyasi ____ No_____, _____ yil _____ da berilgan)

- a) tender hujjatlarini taqdim etish;
- b) tender buyurtmachisi va ishchi organ bilan muzokaralar o‘tkazish;
- v) tender komissiyasi majlislarida qatnashish;
- g) tender taklifining texnik va narx qismiga taalluqli masalalarni, shuningdek boshqa masalalarni tushuntirish.

Ushbu ishonchnoma u imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va tender savdolari yakunlari bo‘yicha tuziladigan kontrakt bandlarini kelishishning butun jarayoni, uni imzolash, ro‘yxatdan o‘tkazish va O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlarida hisobga qo‘yish tartibotlari uchun amal qiladi.

Shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab, u bo‘yicha huquq va majburiyatlar to‘liq hajmda "Kompaniya"ga ularning yakuniy bajarilishigacha o‘tadi.

Rahbar yoki vakolatli shaxsning F.I.SH. va imzosi

Ushbu ishonchnoma berilgan shaxsning F.I.SH. va imzosi

Sana: «__» _____ 2025 y.

Muhr joyi

Ishtirokchilarning malakasini baholash tartibi va mezonlari va tender takliflari.

I. Tenderda ishtirok etish uchun ishtirokchilarni malakali tanlab olish tartibi va mezonlari.

Malakaviy baholash tender komissiyasi tomonidan tender boshlanganidan keyin amalga oshiriladi.

Malakaviy baholash mezonlari

№	Mezon	Baho	Eslatma
1	Ishtirokchini ta'sis etish muddati tender e'lon qilingunga qadar kamida 5 yil	Mos keladi / mos kelmaydi	Agar mos kelmasa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
2	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda yozuvning mavjudligi	Kiritilgan/Kiritilmagan	Agar kiritilgan bo'lsa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
3	Malaka hujjatlarining to'liq paketi mavjudligi va ularni belgilangan muddatda taqdim etish	Bor/yo'q	Yo'q bo'lsa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
4	Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichidagi ishtirokchining holati	Ha / yo'q (ishtirokchining kafolat xati asosida o'tkaziladi)	Agar shunday bo'lsa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
5	Ishtirokchining Buyurtmachi bilan sud yoki arbitraj ishlari bo'yicha nizoli bosqichidagi holati	Ha / yo'q (ishtirokchining kafolat xati va buyurtmachining ma'lumotlari asosida o'tkaziladi)	Agar shunday bo'lsa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
6	Ishtirokchini va ishtirokchi bankni offshor hududlarda ro'yxatdan o'tkazish	Ha / yo'q	Agar shunday bo'lsa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
7	Futbol sohasida obyektlarni realizatsiya qilish tajribasining mavjudligi	Bor/yo'q	Yo'q bo'lsa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi

I. Bosqich: Takliflarni texnik baholash.

Tender komissiyasi tomonidan tender ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va texnik qism asosida amalga oshiriladi. Tender ishtirokchilarining texnik baholashdan o'tmagan (ballar qo'yish yakunlari bo'yicha 0 ball to'plagan) takliflari diskvalifikatsiya qilinadi.

Shu bilan birga, tender taklifini texnik baholash ishlab chiqaruvchining taklif etilayotgan individual texnik yechimlarining texnik topshiriqda keltirilgan asosiy texnik parametrlarga muvofiqligi asosida amalga oshiriladi.

Agar tender taklifining texnik qismi ushbu texnik topshiriqdan farq qilsa, Ishtirokchi tender taklifida va/yoki texnik baholash paytida o'zining texnik yechimlari bo'yicha tushuntirish berishi kerak.

Texnik baholash mezonlari

№	Mezon	Baho	Eslatma
1	Tender hujjatlari talablariga muvofiqligi (texnik talablar)	Mos keladi/mos kelmaydi	Agar mos kelmasa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi

II Bosqich: Takliflarni narx bo'yicha baholash.

Tender komissiyasi tomonidan tender ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida texnik baholash o'tkazilgandan keyin amalga oshiriladi.

Narxni baholash mezonlari

№	Mezon	Baho	Eslatma
1	Eng past narx	Eng past narx - eng yuqori ball Eng yuqori narx - eng past ball	Boshqa teng sharoitlarda texnik, texnologik, tashkiliy yoki boshqa afzalliklarga ega bo'lgan tender ishtirokchisiga ustunlik beriladi.

TEXNIK QISM

TEXNIK TOPSHIRIQ

O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi ko‘magida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri, Mustaqillik ko‘chasi manzilida joylashgan 105 x 68 m² o‘lchamli sun’iy futbol maydonini o‘rnatish uchun montaj va o‘rnatish ishlarini amalga oshirish

Toshkent- 2025

Tender predmeti - "kaliti bilan" drenaj tizimini o'rnatish va montaj qilish bilan sun'iy futbol maydonini yetkazib berish.

Sotib olishdan maqsad - O'zbekiston terma jamoalari markazini sun'iy futbol maydonlari bilan jihozlash.

Loyihani amalga oshirish uchun asos: Prezidentning 12.04.2019 yildagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5887-son qarori.

Loyihaga qo'yiladigan asosiy talab - sun'iy qoplamali futbol maydonlarini loyihalashtirish va qurish bo'yicha FIFAning Amaliyot kodeksiga (2023 yilgi nashr) muvofiqligi.

Ishlatiladigan mahsulotlar yangi, ishlatilmagan, foydalanilmayotgan bo'lishi kerak.

Konfiguratsiya talablari - ishlab chiqaruvchi standartlariga muvofiq.

Sun'iy maydon FIFA Quality Pro sifatiga ega stadionlar uchun FIFA talablariga javob berishi kerak.

Foydalaniladigan mahsulotning to'liq va batafsil tavsifini o'z ichiga olgan texnik hujjatlar (risolalar, pasportlar, foydalanish yo'riqnomalari va boshqalar), shuningdek, FIFA Quality Pro sifat belgisini ko'rsatadigan sun'iy qoplama haqida ma'lumot.

Sun'iy futbol maydonlarini o'rnatish FIFA Quality Pro sifatiga ega stadionlar uchun OFK va FIFA talablariga qat'iy rioya qilgan holda Ta'minotchi tomonidan o'z hisobidan amalga oshirilishi kerak.

Kafolat muddati - o'rnatilgan kundan boshlab kamida 5 yil (mintaqaning iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda). Kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Chiqarilgan yili 2025-yildan oldin emas.

Darvoza, to'r, sun'iy chim, granulalar va boshqa aksessuarlarni yetkazib berish shartnomaga kiritilishi lozim.

SUN'IY QOPLAMANING BATAFSIL TAVSIFI

Futbol maydonining sifati maydondan mo'ljallangan foydalanish hisobiga mos kelishi kerak: haftasiga 33 soat, soatiga 22 o'yinchi va h.k.

Asos - bazaviy qatlam 15-30 mm va 7-15 mm fraksiyali chaqiq tosh yoki shag'aldan bajarilishi kerak. Asos osti - zichlangan tuproq (Proktor 97 usuli bo'yicha zichlikni tekshirish). Ortiqcha yer pudratchi tomonidan olib tashlanishi kerak.

Monitoring FIFA tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar tomonidan amalga oshirilishi lozim: texnik xizmat ko'rsatish dasturining yillik monitoringi.

Maydonning maqbul xususiyatlarini saqlab qolish va o'yinchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun mini-traktor, silliqlash stanogi, qimmatbaho cho'tka, cho'tka mashinasi va boshqalarni o'z ichiga olgan texnik xizmat ko'rsatish uskunalaridan foydalanish kerak.

Perimetri bo'ylab to'siq - balandligi 4 m bo'lgan devor uchun simdan yasalgan to'r.

Topografik syomka: transport usuli, ham gorizontal, ham burchak o'lchamlarini o'lchash (qiyalik 0,5%). Nazorat bosqichlari maydon qurilishi jarayonida FIFAning sun'iy qoplamali futbol maydonlarini loyihalash, qurish va sinovdan o'tkazish amaliyoti kodeksining 16-bandiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Asosiy maydon quyidagi o'lcham va parametrlarni o'z ichiga oladi:

Maydon o'lchamlari: 105,00 m x 68,00 m (o'yin zonasi).

Himoya zonalari: kengligi 3,0 m (darvoza ortida); 4,0 m uzunlikda (maydon bo'ylab).

Umumiy maydoni 7 739 m².

Maydonning umumiy maydoni o'lchamlari: 111 x 72 m.

Sun'iy qoplamali futbol maydonini o'rnatish uchun texnik talablar:

Jahon standartlariga javob beradigan sun'iy qoplamali futbol maydonini o'rnatish uchun FIFA QUALITY PRO sertifikatiga ega bo'lgan 5 sm dan 6 sm gacha bo'lgan tukli qoplamadan foydalanish kerak.

Sun'iy qoplama afzalliklari:

- kamida 3 ta qattiq mustahkamlovchi tola, omega shaklidagi ip, ikki rangli monofilament ip,
- eng kam zichligi 12 500 Dtex, eng kam yo'g'onligi 240 mikron va ipning eng kam eni 1,5 mm,
- a'lo darajadagi barqarorlik va chidamlilik,
- PE XQ polimerlari, 6000 Lisport XL sinov sikllari.

Pastki qatlam to'ldiruvchisi: kvars qumi, fraksiyasi 0,6 - 1,2 mm.

Yuqori qatlam to'ldiruvchisi: SBR granulyati, 1,2-3 mm fraksiya.

Panjara qismi tafsilotlari (Chap tomon):

- Devor
- Anker bazasi
- To'sinlar uchun beton
- Beton balandligi = 5 sm
- Zichlangan tuproq (Proktor 97 usuli bo'yicha tekshirish)

Maydonning ko'ndalang kesimi tafsilotlari:


- Sun'iy o't
- Shag'al 15 mm - 10 sm
- Shag'al 15-35 mm - 20 sm
- Drenaj quvuri
- Zichlangan tuproq (Proktor 97 usuli bo'yicha tekshirish)

Sun'iy qoplama qatlami detallari:


- Sun'iy o't
- Rezina granulalar
- Barqarorlashtiruvchi qum
- O'tning asosiy asosi

Sun'iy futbol maydonini o'rnatish quyida keltirilgan asos chizmalariga muvofiq bajarilishi kerak.
(Quyidagi rasmlarga qarang)


Рисунок 1




Разрез 1-1



УЗЕЛ - Б ОСНОВНОЙ ПИРОГ = 350 мм





Yuqoridagi rasmlarga nisbatan:

1. Taglik ostidagi chuqurlik (200 mm) juda sayoz bo'lishi mumkin, odatiy chuqurlik 300 mm bo'lishi mumkin.
2. Asoslar uchun agregatlarni greyderlash yuzaning muntazamligi talablariga erishishni ta'minlash uchun tekislovchi material qatlamini o'z ichiga olishi kerak.
3. Omega emas, balki har xil turdagi tukli iplar ishlatilishi mumkin.
4. Taklif etilayotgan to'ldiruvchi atrofda hududga tarqatish mumkin bo'lgan rezina kukuni bo'lsa ham, sizishning oldini olish uchun texnik choralar ko'rish kerak.

NARX QISMI

1	Chegaraviy qiymat	250 000 (ikki yuz ellik ming) AQSH dollari yoki 3 103 500 000 (uch milliard bir yuz uch million besh yuz ming) so'm
2	Moliyalashtirish manbai	O'z mablag'lari/Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (FIFA) va Osiyo futbol konfederatsiyasi (AFC) tomonidan ajratiladigan mablag'lar O'z mablag'lari/Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (FIFA) va Osiyo futbol konfederatsiyasi (AFC) tomonidan ajratiladigan mablag'lar
3	To'lov shartlari	Xorijiy va mahalliy ishtirokchilar uchun - 100% - yetkazib berish/ishlarni bajarish/xizmatlarni ko'rsatish va Dalolatnomani imzolash fakti bo'yicha.
4	To'lov valyutasi	Xorijiy yetkazib beruvchilar uchun - AQSH dollari Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar uchun - so'm.
5	Yetkazib berish/ish bajarish/xizmat ko'rsatish muddati	Shartnoma imzolangandan keyin 30 kun ichida.
6	Tender taklifining amal qilish muddati	Tender takliflarini berish tugagan paytdan boshlab 90 kun

SHARTNOMA LOYIHASI

Shartnoma loyihasi dastlabki hisoblanadi, uning shartlari tomonlarning kelishuviga ko'ra O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va tender shartlariga zid bo'lmagan qismlarga o'zgartirilishi mumkin.

SHARTNOMA № _____
montaj va o'rnatish ishlariga

Toshkent sh.

«__» _____ 2025 y.

"" **MCHJ**, keyingi o'rinlarda "**Pudratchi**" deb ataluvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi Bosh direktor _____ nomidan, bir tomondan va keyingi o'rinlarda "**Buyurtmachi**" deb ataluvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi _____ nomidan, ikkinchi tomondan, birgalikda "**Tomonlar**" deb ataluvchi, alohida "**Tomon**" deb ataluvchi, quyidagilar to'g'risida ushbu Shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Pudratchi ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda ushbu Shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq montaj va o'rnatish ishlarini (keyingi o'rinlarda Ishlar deb ataladi) bajarish majburiyatini oladi, Pudratchi esa ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq bajarilgan Ishni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.
- 1.2. Ishlar ushbu Shartnomada, shuningdek Tomonlar rioya etishi majburiy bo'lgan O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan Ishlarning hajmi, sifati va bajarish muddatlari bo'yicha barcha talablarni amalga oshirish doirasida bajariladi.
- 1.3. Ishlar Pudratchi tomonidan o'z materiallaridan va/yoki Buyurtmachi tomonidan qayta ishlash asosida taqdim etilgan materiallardan, o'z uskunolari va asbob-uskunolari bilan bajariladi.
- 1.4. Ishlarni bajarish muddatlari:
boshlanishi: 20__ yil "___" _____;
tugashi: 20__ yil "___" _____.
- 1.5. Buyurtmachi ushbu Shartnoma shartlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan va/yoki o'z vaqtida bajarmagan taqdirda, Pudratchi Ishlarni bajarish muddatlarini o'zgartirish huquqiga ega.
- 1.6. Pudratchi Ishlarni muddatidan oldin bajarish huquqiga ega.
- 1.7. Tomonlar "Bajarilgan ishlar hajmlarini topshirish-qabul qilish dalolatnomasi"ni imzolaganlaridan va Pudratchi tomonidan taqdim etilgan "Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risidagi hisobvara-q-faktura ma'lumotnomasi"dan keyin ishlar bajarilgan hisoblanadi.
- 1.8. Ushbu Shartnoma shartlarini bajarish doirasida Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda Ishlarni bajarish uchun tashqi (subpudratchi) tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega.

2. KAFOLAT VA ARIZALAR

- 2.1. Pudratchi Buyurtmachiga yetarli texnik bilimlarga, texnologiyalarga va shunga o'xshash ishlar tajribasiga ega ekanligini, ushbu Shartnoma bo'yicha Ishlarni vijdonan, sifatli va to'liq bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, mashinalar, mexanizmlar, priborlar, moslamalar va yuqori malakali xodimlarga ega ekanligini, Ishlarni amalga oshirish uchun zarur ruxsatnomalar, sertifikatlar va litsenziyalarga ega ekanligini ma'lum qiladi va kafolat beradi.
- 2.2. Pudratchi va Buyurtmachi o'z vakolatlari va javobgarligi doirasida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq zarur bo'lgan barcha ruxsatnomalar va kelishuvlarni o'z vaqtida olishni kafolatlaydilar hamda ushbu nizomni buzish oqibatida yuzaga keladigan har qanday javobgarlik, har qanday xavf-xatar, jarimalar va zararlardan bir-birlarini himoya qiladilar.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

- 3.1. Buyurtmachining majburiyatlari:
 - Ishlarni bajarish jarayonida yuzaga kelgan barcha ma'muriy rasmiyatchiliklarni hal etish.
 - Ishlarni bajarish davrida (Pudratchining oldindan berilgan yozma arizasiga ko'ra) Buyurtmachi Pudratchi xodimlarining obyektga to'sqinliksiz kirishini, shuningdek, obyektida ruxsat berish rejimi talablariga muvofiq uskunalar, materiallar va asboblarni olib kirish/olib chiqishni ta'minlash majburiyatini oladi.

- Buyurtmachi Pudratchi tomonidan zarur sifatda va kelishilgan muddatlarda bajarilgan Ishlarni ushbu Shartnoma va/yoki Qo'shimcha kelishuvda belgilangan tartib va shartlarda qabul qilish va to'lash majburiyatini oladi.

3.2. Pudratchining majburiyatlari:

- Pudratchi ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Ishlarni bajarish majburiyatini oladi.

- barcha ishlarni O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan texnik me'yorlar va talablarga muvofiq bajarish.

3.3. Ushbu shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar yuzaga kelganda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qilishlari kerak.

3.4. Buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Ishlarning bajarilishini nazorat qiladi.

3.5. Buyurtmachi o'z zimmasiga olgan asbob-uskunalar, materiallarni kelishilgan muddatlarda yetkazib berishni ta'minlaydi.

4. SHARTNOMA SUMMASI, HISOB-KITOBLAR TARTIBI VA SHAKLI

4.1. Pudratchi tomonidan bajariladigan ishlarning umumiy qiymati, Pudratchining materiallarini qo'shgan holda, QSSiz _____ (_____) so'm miqdoridagi summani tashkil etadi.

4.2. Ushbu Shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan ishlar qiymatining 100% miqdoridagi hisob-kitob tomonlar o'rtasida bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida u imzolanganidan keyin besh bank kuni ichida amalga oshiriladi.

4.3. Ushbu Shartnoma bo'yicha to'lov Buyurtmachi tomonidan Ijrochining hisob raqamiga O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so'mda amalga oshiriladi.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Pudratchi ishlarni bajarish muddatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmagan qismi summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq ushbu summaning 20 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.2. Ushbu shartnoma bo'yicha ishlar qiymatini o'z vaqtida yoki to'liq to'lamaganlik uchun Buyurtmachi Pudratchiga har bir kechiktirilgan kun uchun o'tkazilmagan summaning 0,4 foizi miqdorida, biroq ushbu summaning 20 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.3. Neustoykaning to'lanishi tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

5.4. Tomonlarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

6. TOMONLAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI HAL ETISH

6.1. Ushbu shartnomani bajarish davomida yuzaga kelgan barcha kelishmovchiliklar tomonlarning kelishuviga ko'ra, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

6.2. Buyurtmachi tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilishi yuzasidan e'tirozlar (yozma ravishda) bildirilgan taqdirda, Pudratchi ularni Buyurtmachi tomonidan e'tiroz bildirilgan paytdan boshlab 10 kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatda o'z mablag'lari hisobidan tuzatish majburiyatini oladi. Ishlarning sifati ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot dalolatnomasi bilan tasdiqlanadi.

7. TOPSHIRILGAN ISHLARNING SIFAT KAFOLATLARI

7.1. Sifat kafolatlari ushbu Shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan barcha Ishlarga nisbatan tatbiq etiladi.

7.2. Kafolat muddati Tomonlar bajarilgan ishlar dalolatnomasini imzolagan kundan boshlab 60 (oltmish) oyni tashkil etadi.

7.3. Agar Obyektdan kafolatli foydalanish davrida Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar natijasida yuzaga kelgan nuqsonlar aniqlansa, Pudratchi ularni o'z hisobidan bartaraf etishi shart, bu holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi.

7.4. Nuqsonlarning mavjudligi va ularni bartaraf etish muddatlari Buyurtmachi va Pudratchining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

8. FORS MAJOR HOLATLAR

8.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bu bajarmaslik yong'in, suv toshqini, zilzila,

hukumat organlarining qarorlari kabi Tomonlar nazoratidan tashqarida bo'lgan favqulodda hodisalar natijasida shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibati bo'lsa. Tomonlar shartnomaning bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yuzaga kelgan va ularning amal qilishi tugagan taqdirda bu haqda bir-birlarini darhol xabardor qilishlari kerak.

9. QO'SHIMCHA SHARTLAR

- 9.1. Ushbu Shartnoma Tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab, vakolatli organda ro'yxatdan o'tkazish zarur bo'lgan taqdirda esa vakolatli organda ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi, Tomonlar ushbu Shartnomani muddatidan oldin bekor qilgan holatlar bundan mustasno.
- 9.2. Ushbu Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma shaklda amalga oshirilgan va Tomonlarning tegishli ravishda vakolatlangan vakillari tomonidan imzolangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.
- 9.3. Tomonlar o'rtasidagi ushbu Shartnomaga zid bo'lgan barcha oldingi yozishmalar, hujjatlar yoki muzokara materiallari ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab o'z kuchini yo'qotadi.
- 9.4. Tomonlardan birining mulkdori, tashkiliy-huquqiy shakli, tuzilmasi, nomi, ijro etuvchi organi, pochta manzili yoki bank rekvizitlarining o'zgarishi ushbu Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Bunday o'zgarishlar yuz bergan taqdirda, ko'rsatilgan o'zgarishlar yuz bergan Tomon boshqa Tomonni bunday o'zgarishlar yuz bergan paytdan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida yozma ravishda xabardor qilishi kerak.
- 9.5. Ushbu Shartnomaning barcha ilovalari va qo'shimchalari, shuningdek Tomonlarning ushbu Shartnoma doirasida qabul qilgan qarorlari uning ajralmas qismini tashkil etadi.
- 9.6. Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi va talqin qilinadi. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.
- 9.7. Agar ushbu Shartnomaning biron-bir sharti yoki qoidasi haqiqiy emas yoki bajarib bo'lmaydigan ekanligi uzil-kesil aniqlangan bo'lsa, (a) ushbu Shartnomaning boshqa shartlari va qoidalari daxlsiz bo'ladi va (b) haqiqiy bo'lmagan yoki bajarib bo'lmaydigan shartlar yoki qoidalar haqiqiy va bajarilishi mumkin bo'lgan hamda haqiqiy bo'lmagan yoki bajarib bo'lmaydigan shartlar yoki qoidalarining maqsadlariga nisbatan eng yaqin ifodalangan shartlar yoki qoidalar bilan almashtirilishi kerak.
- 9.8. Ushbu Shartnoma rus tilida ikki nusxada tuzildi, har bir nusxa bir xil yuridik kuchga ega.

10. TOMONLARNING REKVIZITLARI

PUDRATCHI:

BUYURTMACHI:

	(Tashkilot nomi)
Manzil:	_____
Bank	_____
Kodi:	_____
STIR:	_____
OKONH:	_____
OKPO:	_____
H/R:	_____
Bank:	_____
Tel.:	_____
Faks:	_____

	(Tashkilot nomi)
Manzil:	_____
Bank	_____
Kodi:	_____
STIR:	_____
OKONH:	_____
OKPO:	_____
H/R:	_____
Bank:	_____
Tel.:	_____
Faks:	_____

(FISH)

(Imzo)

Bosh direktor

(FISH)

(Imzo)

(Lavozimi)

m.j.

(Lazvozimi)

m.j.

Ishlarga qo'yiladigan asosiy talab - sun'iy qoplamali futbol maydonlarini loyihalash va qurish bo'yicha FIFAning Amaliyot kodeksiga (2023 yilgi nashr) muvofiqligi.

Ishlatiladigan mahsulotlar yangi, ishlatilmagan, foydalanilmayotgan bo'lishi kerak.

Konfiguratsiya talablari - ishlab chiqaruvchi standartlariga muvofiq.

Sun'iy maydon FIFA Quality Pro sifatiga ega stadionlar uchun FIFA talablariga javob berishi kerak.

Foydalaniladigan mahsulotning to'liq va batafsil tavsifini o'z ichiga olgan texnik hujjatlar (risolalar, pasportlar, foydalanish yo'riqnomalari va boshqalar), shuningdek, FIFA Quality Pro sifat belgisini ko'rsatadigan sun'iy qoplama haqida ma'lumot.

Sun'iy futbol maydonlarini o'rnatish FIFA Quality Pro sifatiga ega stadionlar uchun OFK va FIFA talablariga qat'iy rioya qilgan holda Ta'minotchi tomonidan uning hisobidan amalga oshirilishi kerak.

Kafolat muddati - o'rnatilgan kundan boshlab kamida 5 yil (mintaqaning iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda). Kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatish shartnoma asosida amalga oshiriladi. Chiqarilgan yili 2025-yildan oldin emas.

Darvoza, to'r, sun'iy chim, granularlar va boshqa aksessuarlarni yetkazib berish shartnomaga kiritilishi kerak.

Futbol maydonining sifati maydondan mo'ljallangan foydalanish hisobiga mos kelishi kerak: haftasiga 33 soat, soatiga 22 o'yinchi va h.k.

Asos - bazaviy qatlam 15-30 mm va 7-15 mm fraksiyalı chaqiq tosh yoki shag'aldan bajarilishi kerak.

Asos osti - zichlangan tuproq (Proktor 97 usuli bo'yicha zichlikni tekshirish). Ortiqcha yer pudratchi tomonidan olib tashlanishi kerak.

Monitoring FIFA tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar tomonidan amalga oshirilishi kerak: texnik xizmat ko'rsatish dasturining yillik monitoringi.

Maydonning maqbul xususiyatlarini saqlab qolish va o'yinchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun mini-traktor, silliqlash stanogi, qimmatbaho cho'tka, cho'tka mashinasi va boshqalarni o'z ichiga olgan texnik xizmat ko'rsatish uskunalaridan foydalanish kerak.

Perimetri bo'ylab to'siq - balandligi 4 m bo'lgan devor uchun simdan yasalgan to'r.

Topografik syomka: transport usuli, ham gorizontal, ham burchak o'lchamlarini o'lchash (qiyalik 0,5%).

Nazorat bosqichlari maydon qurilishi jarayonida FIFAning sun'iy qoplamali futbol maydonlarini loyihalash, qurish va sinovdan o'tkazish amaliyoti kodeksining 16-bandiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Asosiy maydon quyidagi o'lcham va parametrlarni o'z ichiga oladi:

Maydon o'lchamlari: 105,00 m x 68,00 m (o'yin zonasi).

Himoya zonalari: kengligi 3,0 m (darvoza ortida); 4,0 m uzunlikda (maydon bo'ylab).

Umumiy maydoni 7 739 m².

Maydonning umumiy maydoni o'lchamlari: 111 x 72 m.

Sun'iy qoplamali futbol maydonini o'rnatish uchun texnik talablar:

Jahon standartlariga javob beradigan sun'iy qoplamali futbol maydonini o'rnatish uchun FIFA QUALITY PRO sertifikatiga ega bo'lgan 5 sm dan 6 sm gacha bo'lgan tukli qoplamadan foydalanish kerak.

Sun'iy qoplama afzalliklari:

- kamida 3 ta qattiq mustahkamlovchi tola, omega shaklidagi ip, ikki rangli monofilament ip,
- eng kam zichligi 12 500 Dtex, eng kam yo'g'onligi 240 mikron va ipning eng kam eni 1,5 mm,
- a'lo darajadagi barqarorlik va chidamlilik,
- PE XQ polimerlari, 6000 Lisport XL sinov sikllari.

Pastki qatlam to'ldiruvchisi: kvars qumi, fraksiyasi 0,6 - 1,2 mm.

Yuqori qatlam to'ldiruvchisi: SBR granulyati, 1,2-3 mm fraksiya.

Panjara qismi tafsilotlari (Chap tomon):

- Devor
- Anker bazasi
- To'sinlar uchun beton
- Beton balandligi = 5 sm
- Zichlangan tuproq (Proktor 97 usuli bo'yicha tekshirish)

Maydonning ko'ndalang kesimi tafsilotlari:

- Sun'iy o't
- Shag'al 15 mm - 10 sm
- Shag'al 15-35 mm - 20 sm
- Drenaj quvuri
- Zichlangan tuproq (Proktor 97 usuli bo'yicha tekshirish)

Sun'iy qoplama qatlami detallari:

- Sun'iy o't
- Rezina granulalar
- Barqarorlashtiruvchi qum
- O'tning asosiy asosi

Sun'iy futbol maydonini o'rnatish quyida keltirilgan asos chizmalariga muvofiq bajarilishi kerak.
(Quyidagi rasmlarga qarang)




Рисунок 1







Рисунок 2

Разрез 1-1



УЗЕЛ - Б ОСНОВНОЙ ПИРОГ = 350 мм





Yuqoridagi rasmlarga nisbatan:

1. Taglik ostidagi chuqurlik (200 mm) juda sayoz bo'lishi mumkin, odatiy chuqurlik 300 mm bo'lishi mumkin.
2. Asoslar uchun agregatlarni greyderlash yuzaning muntazamligi talablariga erishishni ta'minlash uchun tekislovchi material qatlamini o'z ichiga olishi kerak.
3. Omega emas, balki har xil turdagi tukli iplar ishlatilishi mumkin.
4. Taklif etilayotgan to'ldiruvchi atrofdagi hududga tarqatish mumkin bo'lgan rezina kukuni bo'lsa ham, sizishning oldini olish uchun texnik choralar ko'rish kerak.